

ARUZ ILMINING PAYDO BO'LISHI VA O'RGANILISHI XUSUSIDA

Kamolova Umida Muzaffarovna,

BuxDPI mustaqil tadqiqotchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14968429>

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab, fors, turkiy adabiyotshunoslikda aruz ilmining o'rganilishi xususida mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, sharqshunos olimlarning tahlil va tadqiqotlari to'g'risida ham izlanishlarning amaliy ifodasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: tadqiqot, tahlil, talqin, vazn, chizma, rukn, fonetik o'zgarishlar, tasnif, nazariy tushuncha, ma'naviy meros.

О ЧРЕЗВЫЧАЙНОЙ СИТУАЦИИ И ИЗУЧЕНИИ НАУКИ О СНОВАНИЯХ

Аннотация. В данной статье содержатся комментарии по изучению науки Аруз в арабском, персидском и турецком литературоведении. Также освещается практическое выражение исследований в анализе и исследованиях ученых-востоковедов.

Ключевые слова: исследование, анализ, интерпретация, вес, рисунок, колонка, фонетические изменения, классификация, теоретическое понимание, духовное наследие.

ON THE EMERGENCY AND STUDY OF THE SCIENCE OF DREAMS

Abstract. This article contains comments on the study of Aruz science in Arabic, Persian and all Turkish literary studies. Also, the practical expression of the researches is also covered about the analysis and researches of oriental scientists.

Keywords: research, analysis, interpretation, aruz, drawing, column, phonetic changes, classification, theoretical understanding, spiritual heritage.

She'riy tizimlar va ularni o'rganish masalasi jahon adabiyoti, shuning bilan bir qatorda, xalqaro pedagogikada dolzarbligi bilan ahamiyatga molik. Chunki nazmiy asarlarni nafaqat mazmunan, balki shaklan tushunish, ifodali o'qiy olish badiiy mutolaaning asosiy shartidir.

Ma'lumki, she'riy vaznlar uch turga bo'linadi: barmoq, erkin hamda aruz. Ular orasida aruz vazni alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi.

“...Aruz fannikim, nazm avzoning mezonidur, sharif fandur. Nevchunkim, nazm ilmining rutbasi bag'oyat biyik rutbadur. Andoqki, haq subhonahu va taoloning kalomi majidida ko'p yerda nazm voqe' bo'lubturki, aruz qavoidi bila rostdur. Ul jumladin biri bu oyatdurkim: “Lan tanolul-birra xato ilon”dur; “ramali musaddasi mahzuf” voqe' bo'lubtur. Va yana budurkim: “Valmursaloti urfan, fal-osifoti asfan”kim, vazni: “maf'ulu foilotun maf'ulu foilotun”dur, “muzorei musammani axrab” voqe' bo'lubtur. Va yana: “Jannoti adnin fadxulluho xolidin”kim, vazni: “mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilon”dur va “rajazi musaddasi muzol” voqe' bo'lubtur. Va kalomulloda ko'p yerda bu nav' voqe'dur. Va rasul salallohu alayhi vasallam

ahodisida dag'i ham bu tariq tushubdur. Ul jumladin biri budurkim, "man akrama oliman faqad akramani"kim, vazni: "maf'ulu mafoilun mafoiylu faul"dur, va ruboiy vaznida "hazaji axrabi maqbuzi makfufi majbub" voqe' bo'lubtur"[4, 137]. Ushbu ifodadan oydinlashadiki, Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida aruz ilmini "sharif fan" deydi. Uning rutbasini ulug' rutba deya e'tirof etar ekan, Qur'oni Karim oyatlarining she'riy ohangini aruz qoidalariga muvofiqligi bilan (aruz qavoidi bila rostdur) ifodalaydi. Demak, aruzning paydo bo'lishidan toki ilmiy-nazariy asoslanguniga qadar vaqt bevosita Arab diyori, ko'chmanchi sahroyi qabilalarning turmush tarzi, Xalil ibn-Ahmadning sa'y-harakatlariga borib taqaladi.

Xalil ibn-Ahmad – arabistonlik adabiyotshunos, tilshunos, musiqashunos olim. U Arab folklori – og'zaki ijodini chuqur bilgan holda xalq orasidan yig'ilgan she'rlarni o'qib, tahlil etadi. Qarasaki, yozilgan qasidalar har xil ohangda. U she'r ohanglarini tuyalarning harakatiga, ot dupurining bir maromda eshutilishiga, temirchilar dakdasiga o'xshatgan. Ularni birma-bir tasnif etib, o'zining she'riy nazariyasini yaratdi. "Kitob al-ayn" asarida aruz sistemasi, vaznga doir nazariy tushunchalar, tasniflar ifodalangan.

Xalil ibn Ahmaddan keyin hech bir aruzshunoslar uning aruz ilmi nazariyasini inkor etishmagan va o'z tadqiqotlarida uni asos qilib olishgan. "Abulhasan Axfash, Ibn Usmon Maziniy, Imom Axmad ibn Abdurabbix, Ibn al-Xatib at-Tabriziy, Ziyovuddin Abul Jaysh al-Hazrajiy kabi arab olimlari ham aruz she'riy tizimi nazariy masalalari xususida izlanishlar olib borganlar" [7, 9].

VIII asrda yuz bergan tarixiy o'zgarishlar, xususan, Arab istilosi, Islom madaniyatining keng yoyilishi samarasi o'laroq, adabiy ta'sir jarayonlari yuzaga keldi. Bunda boshqa xalqlar adabiyoti arab adabiyotshunosligi normalari asosida tushuntirila boshlandi. Binobarin, fors she'riyati va adabiyotshunosligi "arab poetikasi metodologiyasini to'la o'zlashtirish va uni tadrijiy rivojlantirish yo'lidan borib, o'zi ham taraqqiy eta boshladi" [6, 155]. Shushtariy, Abuyusuf, Muhammad ibn Umar Rudiyniy, Abulhasan Ali Bahrom Saraxsiy, Abu Abdulloh Fushi Kurashiy, Buzurgmehr Qoyiniy, Rashiduddin Vatvot, Shams Qays Roziy singari olimlarning kitoblarida aruzga oid nazariy bilimlar uchraydi.

Abulhasan Ali Bahrom Sarahsiy shoir hamda aruz ilmining bilimdoni. Uning "Hujastnoma" kitobi, "G'oyat ul-aruzayn" risolasi aruz vazniga bag'ishlangan. Ijodkor "G'oyat ul-aruzayn" asarida arab va fors aruzini solishtirib, ularni qiyosiy o'rgangan. Shams Qays Roziyning fikricha, Sarahsiy Buzurgmehr Koyiniy bilan birga fors aruzining uch yangi doirasini kashf qilgan. Ular: mung'alata, mun'aliqa, mun'akisa deb ataladi [6, 155].

Bundan tashqari Muhammad ibn Umar Rudiyniyning "Tarjuma ul-balog'a", Rashididdin Vatvotning "Hadoyiq us-sehr" asari ilmiy-nazariy bilimlarni ilmi aruz, ilmi qofiya hamda ilmi bade' mushtarakligida o'rganilgan asarlar hisoblanadi.

Shuningdek, yirik nazariyotchi, aruzshunos olim Shams Qays Roziyning “Al mo‘jam fi maoyiri ash’or ul-ajam” asari aruzshunoslikka doir muhim manbalar sirasiga kiradi. Asarning birinchi qismi aruz nazariyasi xususida bo‘lib, u to‘rt bobdan iborat. Dastlabki bobda “Aruz” so‘zining ma’nosi, atama sifatidagi mohiyati, ikkinchi bobda juzv va vaznlar, uchinchi bobda vaznlar tahlili va tarmoq vaznlar, to‘rtinchi bobda bahrlar va aruz doiralari haqida so‘z yuritilgan. Muhim jihati shundaki, asarda muallif aruz istilohining ma’nolari, asl va tarmoq ruknlar, baytdagi ruknlar tartibi, ruknlar tartibidan hosil bo‘ladigan bahrlar, ularning nomlanishi, aruziy atamalarni tasniflash barobarida arablardagi asl ruknlar va fos aruzidagi o‘zgarishlar, forsiy va arab aruzi o‘rtasidagi tafovutlar borasida mulohazalar bayon qilingan.

Fors mutafakkiri Nosiriddin Tusiyning “Me‘yor ul-ash’or” asari fors va arab aruzi hamda qofiya ilmiga bag‘ishlangan asar bo‘lib, tili sodda, ravon, nazariy qarashlar oddiy, tushunarli ifodalangan.

“Me‘yor ul-ash’or”da muallif Xalil ibn-Ahmad nazariyasi asoslari, arab va fors adabiyotlarida aruzning ko‘rinishlari, “arab she‘riyatiga xos bo‘lgan tavil, madid, basit, vofir va komil vaznlariga xos xususiyatlar, ular tashkil qilgan doiralar haqida atroflicha ma’lumot keltiradi. Olim bu vaznlarni fors adabiyoti uchun nologyiq hisoblaydi. Aruz vaznlarini “arab aruzi doiralari”, deb besh doiraga, “fors aruzi doiralari”, deb qolgan besh doiraga jamlaydi. Arab aruzi doiralari qatoriga mujtalibayi solima, mujtalibayi muzohafa, mushtabahayi musammama, mushtabahayi musaddasi va muttafiqalarni kiritadi. Tusiy aruzning eng asosiy, eng kichik unsurlari deb, musiqiylikni va tovushlar (ovozlar)ni belgilaydi”[6, 158].

Ham shoir, ham aruzshunos olim Abdulqahhor Samarqandiyning “Aruzi Xumoyun” risolasi Shams Qays Roziy hamda Nosiruddin Tusiy risolalaridagi nazariy bilimlarga tayanib, tartib berilgan. Ammo amaliy misollar zamondosh shoirlar ijodiga oid she‘riy parchalar orqali dalillangan.

O‘zigacha bo‘lgan barcha she‘r nazariyalarini to‘plab, qiyoslab, umumlashtirib, uning mohiyatini ilmiy-nazariy, amaliy asoslab bergan, aruz va qofiya ilmida o‘z davrining bilimdon kishisi hisoblangan olim Atoulloh Husayniydir.

Uning “Badoye’ us-sanoye” asarida aruzga doir nazariy qarashlar keltirilgan. Ta’kidlash o‘rinliki, “Alisher Navoiy o‘zining turkiy aruzga bag‘ishlangan “Mezon ul-avzon” asarini yozishdan avval Atoulloh Husayniydan aruz qonuniyatlari bo‘yicha saboq olgan” [6, 159].

E’tirof etish joizki, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz”, Yusuf Aziziyning “Aruzi Yusufiy”, Sharafiddin Rumiyning “Haqoyiq al-hadoyiq” asarlari aruz ilmiga doir muhim manbalar sifatida fanga ma’lum. Ammo ular hozirga qadar ilmiy tadqiq etilmagan.

Aruzshunos va shoir Sayfi Aruzi Buxoriyning aruzga bag'ishlab yozgan asari "Aruz Sayfi" deb nomlangan. Mazkur asar "Ilm al-aruz", "Mezon ul-ash'or", "Risolayi aruz", "Risolayi Sayfi" nomlari bilan ham mashhur bo'lgan. Unda "she'r va shoirlar tasnifi, aruz atamaları lug'ati, bahr va doiralar sharhi, vaznlar tahlili mavjud. Muqaddima va 12 fasldan iborat. Risolada she'r tarixi, eng qadimgi she'r, she'rning paydo bo'lishi haqidagi afsonalar, shuningdek, aruzning nima sababdan vujudga kelganligi, aruz atamasining ma'nolari, mavzun va nomavzun vanlar xususiyatlari, aruz fonetikasi va tovushlar tartibi, aruzdagi eng kichik ritmik elementlardan hisoblangan juzv nazariyasi, baytning shakllanish qonuniyatlari, solim va tarmoq ruknlar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Fors aruzining har bir doirasi va uni tashkil qiluvchi vaznlar va bahrlar tasnifi keltiriladi. Sayfi Buxoriy ruboiy vaznlari barasida ham keng ma'lumotlar berib o'tadi. Risola aruz bo'yicha o'quv qo'llanmasi sifatida bugungacha ishlatilib kelinadi" [6, 160]. Aytish joizki, aruz nazariyasiga oid qarashlar hindistonlik forsiyazon olimlar: Sherxoni Lo'diyning "Mir'ot ul-xayol" hamda Vojidali Mujmalining "Matla' ul-ulum va majma' ul-funun" asarlarida ham uchraydi.

"Aruz poetikasi asoslarini yaratgan ko'pchilik olimlar o'z davrining yetuk bilimdon kishilari bo'lganlar. Ularning tafakkuri o'z davri an'anasiga ko'ra arabiy bilimlar majmuyi asosida shakllantirilgan. O'sha davr ziyolilarining barchasi arabcha ta'lim olganlar. Ana shu bilimlar tarkibida arab tili grammatikasi va filologiyasi, shu jumladan, poetologiyasi asoslarining bo'lishi tabiiy hisoblangan. Grammatika, morfologiya, sintaksis, mantiq, falsafa, poetika asoslari, tarix kabi fan sohalari musulmon madaniyatiga xos ijtimoiy fanlar tarkibiga kirgan. Ana shu fanlarni o'rganish va bilish o'sha davr odamlarining salohiyati va zakovatidan darak bergan" [6,154].

Arab, fors adabiyotidan keyin turkiy xalqlar adabiyotida ham o'ziga xos badiiy o'lchov sifatida shakllangan aruz vazni bu zamin olimlari, she'rshunos, aruzshunoslari tomonidan o'rganildi, takomillashtirildi. Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari turkiy aruzning dastlabki namunalaridan biridir. Unda aruz nazariyasiga oid muhim ma'lumotlar uchraydi. Chunonchi, "Ruknni gohi juzv derlar, gohi rukn"[5, 69]. Bunda ruknning ba'zan juzv ham deb yutilishi ta'kidlangan. Mazkur istiloh batafsil yoritilar ekan, muallif "Bilgilkim, bu sakkiz ruknni arkoni solima derlar. Va har solimdin muzohiflar qo'por. Solim oni ayturlarkim, durust bo'lsa netokkim, asl vazndur. Va zihof uldurkim, solimni bir illat va jihat birla o'ksutub yo o'lturub, tag'yir va tabdil qilurlar" [5, 69], deya mushohadalarini davom ettiradi. Demak, sakkiz ruknning yig'indisi solim (sog'lom) rukn deyiladi. Undan zihoflar yuzaga keladi. Solim aruz qoidalariga muvofiq bo'lsa, hech shubhasiz, asl vazn hisoblanadi. Zihof solim ruknni o'zgartirish orqali hosil qilinadi. Shayx Ahmad Taroziy bahrlar to'g'risida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Bilgilkim, hech bahr to'rt juzvdin o'ksuk va sekkizdin artuq bo'lmas. Ba'zi shoirlar

takalluf qilib, bu bahrlardin birisin ixtiyor etib, mutavval qilurlar. Ya'ni sakkiz juzvdin artuq vazn rost qilurlar. Aning miqdori mutaayyin ermas. Ne miqdor ortursa, ixtiyor shoirgadur va bu tariqani aruz ahli mutavval derlar"[5, 73]. Ilmiy-nazariy qarashlardan ma'lum bo'ladiki, bahrning hosil bo'lishida ruknlar miqdori to'rttadan kam, sakkiztadan ko'p bo'lmaydi. Ayrim shoirlar sakkiz rukndan ortiq rukn shakllantirgan. Miqdor oshsa-da, aruzshunoslikda bu holat, ya'ni baytda sakkiz rukndan ko'p rukn uchrasa, mutavval deyiladi.

Ta'kidlash o'rinliki, risolaning turkiy tilda bitilgani ustuvor jihat sanaladi. Shu ma'noda "Funun ul-balog'a" o'zidan keyin turkiy adabiyotda yaratilgan ko'plab adabiy-nazariy manbalar uchun asos vazifasini o'tadi. Jumladan, bugungi mumtoz adabiyotshunoslik masalalarini yorituvchi qo'llanma, darslik va ilmiy risolalarning tub ildizlari Taroziy qarashlariga bilan mutanosib.

Turkiy aruzning nazariy va amaliy tarqqiyotida Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asari muhim o'rin tutadi. "Ulug' mutafakkir shoir aruz qoidalarini, xilma-xil bahrlari hamda vaznlarini turkiy tilda mufassil bayon qilish bilan cheklanib qolmay, turkiy xalqlarning og'zaki she'riyati mezoni bilan aruz vaznlari hamohangligini atroflicha dalilladi hamda turkiy til xususiyatlarini nazarda tutgan holda aruzning turkiy adabiyotlarda, xususan, o'zbek she'riyatida keng qo'llanishi mumkin bo'lgan ko'plab o'lchovlarini ham belgilab berdi"[3, 7-8].

XV-XVI asr adabiyotining o'ziga xos tomonlaridan biri O'rta Osiyo va Yaqin Sharq yerlarida mumtoz turkiy va fors-tojik adabiyotlarida arab she'riyatining qonun-qoidolari, tizimlari, shu jumladan, aruz vaznining til va adabiyot sohalarida keng tarqalganidir. Tabiiyki, ushbu she'riy vazn haqida o'z zamonasining yetuk shoir va mutafakkirlari bir qancha risola va asarlar yaratgan. Ular sirasiga Zahiriddin Muhammad Boburning "Muxtasar" asarini ham kiritish mumkin. Unda ham aruz nazariyasiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Xususan, "baytning arkonida agar zihof voqe' bo'lmasa solim derlar"[1, 24]. Demakki, agar bayt ruknida zihof uchramasa, u solim deyiladi. Ya'ni ruknda hijolar ketma-ketligi izchil tartibda bo'lib, ruknlar ko'rinishi aynan – o'zgarishsiz takrorlanib keladi.

"Bilgilkim, usulning takroridin, yo ba'zining ba'zi bila tarkibidin bahr hosil bo'lur. Bu bahrlarkim musta'mal va mashhurdur, o'n to'qquzdur: 1. Mutaqorib, 2. Mutadorik, 3. Hazaj, 4. Rajaz, 5. Ramal, 6. Vofir, 7. Komil, 8. Tavit, 9. Madid, 10. Basit, 11. Munsarih, 12. Muzori', 13. Muqtazab, 14. Mujtass, 15. Sari', 16. Jadid, 17. Qarib, 18. Xafif, 19. Mushokil. Yana ikki bahrkim Arid bila Amiqdur, tavil doirasidin hosil bo'lur, ul g'ayri mashhurdur"[1, 24]. Usul (rukn) ning takroridan yoki ayrim ruknlarning birikuvidan bahr hosil bo'ladi. Bu bahrlar – musta'mal(iste'molda, ya'ni she'rda qo'llangan) va mashhur. Ularning soni 19 ta ekani ifodalangan. Ulardan tashqari yana ikki bahr xalq orasida g'ayri mashhur bo'lib, ariz va amiq deyilishi ta'kidlangan.

Yana bir ma'lumotda quyidagi izoh uchraydi: "Bilgilkim, she'rning avzonining arosida ikki sokin yondosha kelmaydur. Agar she'rda ikki sokin jam' bo'lsa, taqti' qilurda birisi mutaharrikka mahsub bo'lur..."[1, 32] Bunda she'r vaznida ikki sukun harfning yondosh kelmasligi, mabodo shunday holat yuz bersa, vazn chizmasida biri mutaharrik bo'lishi e'tirof etiladi. Mazkur vaziyatda ikki cho'ziq bo'lishi joiz hijo, vazn taqozosiga ko'ra, biri qisqa, biri co'ziq bo'ladi.

"Bu vazn forsiyda va turkiyda ko'p shoyi'dur. Mavlono Abdurahmon Jomiy bu vaznda bisyor aytibtur. Mir Alisher Navoiyning xud jami' o'zga vaznda aytqon ash'ori bila bu vaznda aytqon ash'orining loshah borg'ay. Sulton Husayn Mirzoning devonida ushbu vazndin o'zga vazn yo'qtur"[1, 145]. Ramali musammani maqsur vazni to'g'risida Sulton Husayn Boyqaro devonida bu vazn tarmog'idan boshqa vazn uchramasligi "Mezon ul-avzon"da ta'kidlanganidek, "Muxtasar"da ham aytiladi.

E'tiborli tomoni shundaki, Bobur mazkur asarda turkiy aruzni arab va fors-tojik aruzlari bilan solishtirib, ularning yozilishi va vaznlaridagi o'xshashliklarni mukammal o'rgangan. "Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida o'sha davr uchun ma'lum 6 doiraga yana bittasi (Mujtami'a)ni qo'shib, yettinchisini yaratadi. Bobur aruz vaznining bahrlarini o'rganib, ularni aruz ilmi haqida yaratilgan arab, fors-tojik va o'zbek adabiyotlari bilan taqqoslagan holda doiralar sonini 9 ta (Mujtaliba-i muxtaria)ga olib chiqqan"[2, 47-49].

E'tirof etish joizki, sharqshunos olimlarning ilmiy izlanishlarida ham aruz nazariyasiga doir tahlillar uchraydi. Eduard Grenvill Braun, Rudolf Erlanje, Reynold Nikolson, Muhammad Fuod Ko'pruluzoda, Ye.E.Bertes singari olimlarning tadqiqotlari fikrimiz dalilidir.

Ingliz sharqshunosi Eduard Grenvill Braun Kembrij universitetida sharq tillari: arab va fors tillarini o'rgangan. 4 jildli "Eron adabiyoti tarixi" muallifi. Nizomiy Aruziy Samarqandiyning aruzga bag'ishlangan "To'rt maqola"si (1921) matnini va Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"si (1901) matnini nashr ettirgan.

Fransiyalik sharqshunos Rudolf Erlanje Yevropada sharqshunoslik fanining asoschilaridan biridir. 1910-yil Tunisga kelib, arab tilini mukammal o'zlashtirgan. O'rta asr Sharq olimlari (Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin al-Urmaviy va boshqalar)ning musiqaga doir risolalarini fransuz tiliga tarjima qilgan, ulardagi tabulatura yozuvlarini yevropacha nota yozuviga ko'chirgan, 6-jildli "Arab musiqasi" (Parij, 1930-1959) to'plamida e'lon qilib, ilk bor Yevropada muomalaga kiritgan. Ma'lumotlardan oydinlashadiki, Arab musiqasi aruz vazni, nazariy qonun-qoidalarga bevosita aloqador. Rudolf Erlanjening izlanishlarida ham aruz ilmiga bog'liqlik tomonlari bo'lgani shubhasiz.

Reynold Nikolson angliyalik shrqshunos. U Aberdin va Kembrij universitetlarida tahsil olgan. Nikolson fors tilidan o'qituvchi (1902—26) va Kembrijda arab tili professori (1926—33)

bo'lgan. Uning "Arablar adabiyoti tarixi" (1907) asari ingliz tilidagi standart asar bo'lib qolmoqda. Mazkur asarda arab adabiyotining tarixiy taraqqiyoti, jumladan, aruz nazariyasining rivojlanish jihatlari ham yoritilgan.

Ta'kidlash joizki, Yevropa sharqshunoslari aruz nazariyasini sharq adabiyotining muhim qismi sifatida o'rganishgan. Ular aruzning arab, fors va turkiy adabiyotlaridagi o'rni, uning tarixiy rivoji va madaniy ahamiyati haqida chuqur tadqiqotlar olib borishgan. Yevropa olimlari aruz nazariyasini G'arb adabiyoti bilan solishtirib, uning badiiy jihatlari tahlil qilishgan.

Xulosa qilib aytganda, dunyo olimlarining aruz nazariyasiga oid tadqiqotlari bu nazariyaning tarixiy, madaniy, adabiy va falsafiy jihatlari ochib beradi. Aruz nazariyasi nafaqat sharq adabiyotining noyob qismi, balki butun insoniyat madaniy merosining muhim qismi sifatida qadrlanadi. Ushbu tadqiqotlar orqali aruz nazariyasining zamonaviy adabiyot va madaniyatdagi o'rni, uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari hamda xalqaro miqyosdagi ahamiyati chuqurroq tushuniladi.

REFERENCES

1. Бобур. Мухтасар. Тошкент.: "Фан", 1971. Б - 413 б. 24-бет
2. Hadimetova N. "Aruz risolasi"dagi she'rlarning qiyosiy talqini: xalqaro e'tirof. Bobur va dunyo, №2, 2018 y. – B. 47-49. (O'zbekcha); Сопоставительное толкование стихов «Трактата об арузе».
3. Ҳожиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. Тошкент, "Ўқитувчи", 1995. Б – 192. 7-8-бетлар
4. Навоий А. Мезон ул-авзон // Навоий А. Асарлар. 15 томлик. 14-том. Тошкент.: Фафур Гулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1967. Б-133-182. 137-бет
5. Тарозий Ш. "Фунун ул-балоға"// Ўзбек тили ва адабиёти. 2003 йил 1-сон. 69-бет
6. Тўйчиева Г. Аруз ҳақида рисоалар. // Жаҳон адабиёти. 2007-йил. 3-сон. 154-161-бетлар. 159-бет
7. Ziyavutdinova M, Xudjanova D. Aruz ilmi /darslik/. - Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2020, B-122. 9-bet
8. Шамси Қайси Розӣ. Ал-мӯҷам. Душанбе: Адиб, 1991. С-464. 10-саҳ.
9. Х А Ҳайитов Фафур Гуломнинг халқ латифаларидан фойдаланиш маҳорати. Academic research in educational sciences 2(3), 679-687.

10. H H Akhmadovich Khoja nasriddin afandi as people's hero . AKADEMICA : AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL 11(2).1562.
11. T. Khoja o'g'li, K H Ahmadovich Advanced Characteristiks of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature. Amerikan Journal of Social and Humanitarian Research 3 (9).1-4.
12. K K Akhmadovich, NS Ubaydullayevna THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL INTEGRATIONS IN THE FORMATION OF INDEPENDENT WORK IN PRIMARY GRADES.Conferencea, 66-75..
13. K K Akhmadovich, O B Togmurodovich NEW STAGES AND PRACTICAL CONDITIONS FOR CREATING NATIONAL TEXTBOOKS AND ALPHABET BOOKS.Conferencea, 54-58.
14. K K Akhmadovich, SG Badriddinnovna THE CONCERT OF READING, SPECIAL FEATURES OF CHILDREN'S READING E Conferencea,28-33.
15. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.
16. Ahmadov A. XX ASR BOSHLARIDA BUXORO VA AFG'ONISTON EMIGRATSIYASI VA REMIGRATSIYASI //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 1. – C. 842-845.
17. Ahmadov A. AFG 'ON MA'RIFATPARVARI MAHMUD TARZIY VA AFG 'ON MATBUOTI //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 12. – C. 783-786.
18. Ahmadov A. XIX ASR OXIRI–XX ASR BOSHLARIDA AFG'ONISTON MAVZUSINI YORITISHDA SKARABEY TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 11. – C. 894-899.
19. Ahmadov A. SHARQSHUNOS OLIM DN LOGOFET TALQINIDA BUXORO AMIRLIGIDA MAORIF VA DINIY SIYOSAT MASALALARI //" ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал. – 2024. – Т. 16. – №. 8.
20. Шарипова Н. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНГЛИЦИЗМОВ В РАЗНЫХ ЖАНРАХ СМИ //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – C. 57-59.